



# The Symmetric and Asymmetric Study of Lexemes Expressing the Sense of Smell in English and Uzbek

Sherali SHOKIROV <sup>1</sup>

Andijan State University

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

### Keywords:

sense of smell,

semantics,

lexicon,

symmetrical,

asymmetrical,

English,

Uzbek,

Russian,

linguistics,

culture,

lexical study.

## ABSTRACT

This article investigates the symmetrical and asymmetrical study of lexical units denoting the sense of smell in English and Uzbek languages. The paper explores lexical items related to the sense of smell in both languages and analyzes their cultural, linguistic, and psycholinguistic aspects. The similarities and differences between English and Uzbek terms and phrases related to olfactory perception are studied, helping to understand semantic variations in the linguistic systems of both languages. This research highlights both the common and distinctive features in the lexical structures of these languages.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp445-450>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# Ingliz va o'zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik tadqiqi

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

hid bilish,

semantika,

leksika,

simmetrik,

asimmetrik,

ingliz tili,

o'zbek tili,

rus tili,

lingvistika,

madaniyat,

leksik tadqiqot.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida "hid bilish" qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik tadqiqotini amalga oshiradi. Maqolada, har ikki tilda mavjud bo'lgan leksik birliklar o'rganiladi va ularning madaniy, lingvistik va psixolingvistik jihatlari tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi hid bilish qobiliyatiga oid so'zlar va iboralar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar o'rganilib, til tizimidagi semantik farqlarni tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqot, ikki tilning leksik strukturasiidagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib beradi.

<sup>1</sup> Professor, Andijan State University. E-mail: [Sheralis790@gmail.com](mailto:Sheralis790@gmail.com)

## Симметричное и асимметричное исследование лексем, выражающих восприятие запаха на английском и узбекском языках

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

обоняние, семантика, лексика, симметричный, асимметричный, английский язык, узбекский язык, русский язык, лингвистика, культура, лексическое исследование.

Данная статья посвящена симметричному и асимметричному исследованию лексем, выражающих обонятельные способности в английском и узбекском языках. В статье анализируются лексические единицы, связанные с восприятием запахов, а также их культурные, лингвистические и психолингвистические аспекты. Исследуются сходства и различия между терминами и выражениями, относящимися к обонянию в английском и узбекском языках, что помогает лучше понять семантические различия в языковых системах этих языков. Это исследование выявляет как общие, так и уникальные черты в лексической структуре этих языков.

Sezgi organlari ichida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning eng muhim vazifa – hidni idrok eti shvaunga baho berish vazifasini bajaradi. U insonga atrof-muhitni xis qilish, tashqi olamni tuyish va unda o'z o'rnini topib yurish imkonini beradi. Izohli lug'atlar ustida o'tkazilgan tahlillarda hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalar: ingliz tilida: *Smell, scent, odor, aroma, stench, fragrance, odorlessness, bouquet, flavor, perfume, stink, trace, whiff, emanation, essence, incense, redolence, savor, spice, tang, trail*; o'zbek tilida: *hid, is, dud, ishora, sharpa, hidli, hidlanmoq, hidlamoq, hidlantirmoq, hidsizshunga o'xshash qiyoslanayotgan tillarda polisemantik xususiyatga ega ekanligi va alohida olinganda ham, so'z birikmalari yoki frazeologik birikmalar tarkibida kelganda ham, turli tuman ma'nolarni kasb etishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu hol qiyoslanayotgan tillarda hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari bilan bog'liq qator ma'nolarning qay biri invariant, umumiy ma'no bo'la olishini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuni inobatga olgan holda lug'atlardagi hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalar va u bilan bog'liq morfologik hamda sintaktik tuzilishga ega birliklarni ma'no nuqtai nazaridan tahlil etishni lozim deb topdik. N.Websterning "Webster's Third New International Dictionary", Rundell M. "MacMillan English Dictionary for Advanced Learners" va Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English lug'atlarida berilgan ta'riflarida: *Smell, scent, odor, aroma, stench, fragrance, odorlessness, bouquet, perfume, stink, trace, whiff, flavor, emanation, essence, incense, redolence, savor, spice, tang, trail* kabi hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari barcha ma'nolarini ko'rib chiqdik. Yuqoridagi so'zlarni ichida "smell" so'zi barcha xid xissini ifodalovchi so'zlarning yadrosi bo'lib, uning ma'nolari: 1. "to have a particular smell – (muayyan hidga yega bo'lish)". Masalan: *What does the perfume smell like?**

2. *to notice or recognize a particular the room (hamma uchun tanish bo'lgan xid).* Masalan: *He said he could smell gas when he entered the room.*

3. *to put your nose near sth and breathe in so that you can discover or identify its smell (burun teshigi yaqiniga qo'yish va uning hidini aniqlash yoki aniqlash uchun qattik nafas olish).* masalan: *Smell this and tell me what you think it is.*

4. *to have an unpleasant smell (yoqimsiz xid). Masalan: the drains smell, it smells in here.*

5. *to be able to smell (nafas olishga imkoni bo'lmoq). I can smell trouble.*

O'zbek tilshunosligida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa ham, na xususiy, na qiyosiy tilshunoslik yo'nalishida simmetriya va asimmetriya bilan bog'liq birorta alohida monografik ilmiy tadqiqot ishlari mavjud emas. Biz mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, albatta, yuqoridagi til nazariyalari va materiallariga suyanib, o'zbek tilidagi ham hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari struktural-semantik, funksional-sintaktik va stilistik jihatlarni simmetrik va asimmetrik munosabatlarini yoritib berishga harakat qilamiz. Quyida biz 2020 yilda chop etilgan A.Madvaliyevning "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilgan va 1981 yilda chop etilgan Z.M.Ma'rufovning "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilgan hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalardan *hid, is, bo'y, dud, ishora, sharpa, hidli, hidlanmoq, hidlamoq, hidlantirmoq, hidsiz* ma'nolarini ko'rib chiqdik. O'zbek tilida yuqoridagi so'zlar ichida hid, is so'zlari barcha xid xissini yadrosi hisoblanar ekan. Shunday ekan endilikla o'sha so'zlarning izohini berishga, misollar orqali ifoda etishga va semantik ma'no xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz:

1. Har bir narsa va moddaning kishilarning is bilish sezgilariga ta'sir etadigan hossasi: Yoqimli hid. Yoqimsiz hid.

2. *ko'chma* Biror narsa, hodisa yoki holatning belgisi, sharpasi Masalan: *Buning har bir varog'idan shaxsiy g'araz hidi keladi* (A.Qahhor, "Sarob").

3. Narsaning sezgi a'zosi (burun)ga ta'sir etish xususiyati va shu ta'sir *natijasida yuzaga keluvchi hid: Masalan: Qimirlatishdan rayonlarning o'tkir isi o'qtin-o'qtin dimoqqa kelib urinar edi* (A.Qodiriy).

4. Darak beruvchi belgi, ishora: Masalan: Nizomilmulk muhim bir narsaning isini payqaganday, atrofga aylanib, indamasdan uning orqasidan yurdi (Oybek, "Navoiy").

Ingliz va o'zbek tillaridagi hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari simmetrik va asimmetrik munosabatini o'rganish maqsadida ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo'lib chiqdik.

1. Eng kuchli xid: *stink (bisotda saqlanadigan)*; 2. Kuchli hid: funk (ta'sir darajasi yuqori), reek (tez ta'sir qiladigan), stench (zuhir etish), whiff (shiddatli); 3. kuchsiz hid: be malodorous (zaif), smell to high heaven (zuhur etish darajasi past)

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ingliz va o'zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari quyidagi xususiyatlarini ham ta'kidlash lozimdek ko'rinadi:

• **xushbo'y hid xissi:** *ingliz tilida: aura, balm, fragrance, incense, odor, perfume, redolence, savor, scent, smell, spice; o'zbek tilida: xushbo'y hid, tutatqi, hid, atir, lazzatlanish, shirin hid, mushk hid, ziravor*

• **toza havo (yengil shirin shaboda):** *ingliz tilida: aroma, faint breeze, flatus, flutter, gust, odor, puff, sigh, smell, vapor, waft, whiff, zephyr; o'zbek tilida: tebranish, tebratish, mayinlik, xira shabada, chayqalish, shamollatish, nafas.*

• **hid ta'siri:** *ingliz tilida: exhalation, exhaust, odor, smell, vapor; o'zbek tilida: hidi kelmoq, aynimoq, aynigan, o'tkir hid, kislota, o'ngmoq, eskirmoq, sof, yaroqsiz, yomonlashmoq, buzildmoq, o'zgarmaq.*

• **suniy xidlar (insonlar tomonidan ishlab chiqilgan):** *ingliz tilida: aroma, aura, balm, bouquet, incense, perfume, redolence, scent, smell, spice; o'zbek tilida: aroma, balzam, parfume, aura, tutatqi, atir, ziravor, uksus.*

Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi bunday leksemalar insonga tashqi olamni to'laqonli tarzda bilib olishi, idrok qilish, tuyishida o'ziga xos vazifasini bajaradi.

Shuningdek, hid bilish qobiliyatini ifodalovchiquyidagi xususiyatlarini ham ta'kidlash lozimdek ko'rinadi:

1. Ayblov maqsadida: **Masalan ingliz tilida:** *allegation, arraignment, attribution, beef, blast, bum rap, censure, citation, complaint, denunciation, dido, exposé, gripe, impeachment, imputation, incrimination, indictment, insinuation, recrimination, roar, rumble, slur, squawk, stink*; o'zbek tilida: *ayblov, yomon, yomonotliq, yomonlashmoq, sifatsiz, buzuv, og'riq, xatarli, gunoh, behalovat, yoqimsiz, havfli, xatarli, falokat, bexosiyat, hunuk, nosog'lom, lanjtanbeh, shikoyat, qoralash, shama, tuhmat.*

2. Shikoyat, norozilik bayonotida: *ingliz tilida: accusation, annoyance, beef, caviel, CC, charge, clamor, criticism, dissatisfaction, expostulation, fault-finding, grievance, gripe, grouse, grumble, guff, jeremiad, kick, lament, moan, objection, plaint, protest, protestation, rap, remonstrance, remonstrating, representation, reproach, rumble, squawk, stink, trouble, wail, whine*; o'zbek tilida: *arz, talab, shikoyatbozlik, qarshi, ranjimoq, ayblash, alam, caviel, shikoyat, tanqid, norozilik, hukm, e'tiroz, qichqiriq, muammo, yig'lash*

3. Bezovtalik munosabatida: *ingliz tilida: agitation, annoyance, big scene, big stink, bother, brawl, brouhaha, clamor, confusion, convulsion, derangement, disarrangement, disorder, disruption, distraction, eruption, explosion, ferment, fisticuffs, flap, fracas, fray, fuss, hindrance, hubbub, hullabaloo, insurrectioninterruption, intrusion, molestation, perturbation, quake, quarrel, racket, rampage, restlessness, riot, ruckus, rumble, shock, spasm, stink, stir, storm, to-do, tremor, tumult, turmoil, upheaval, uprising, uproar, violence*; o'zbek tilida: *xafa: alam, qo'lansa, bezovta, janjal, shovqin-suron, tartibsizlik, siqilish, tartibsizlik, chalg'itish, achish, hovliqish, to'siq, to'polon, hujum, zo'ravonlik, bezovtalik, g'azab, g'alayon, shovqin, zarba, to'polon, qo'zg'olon, zo'ravonlik.*

Ko'rinib turibdiki, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari simmetrik va asimmetrik munosabati sifatida o'zining asosiy vazifasi, ya'ni hid taratish jarayonini amalga oshirishda bu vazifani qay darajada amalga oshirayotgani ingliz tilida *good, bad, weak, strong* sifatlari yordamida amalga oshiriladi. *Good* sifati hid bilish qobiliyati vazifasini yaxshi bajarayotgani, ya'ni yaxshi idrok etayotganidandan ya'ni simmetrik munosabatdan *dalolat bersa, bad, weak*, sifatlari bilan birikkanda uning faoliyati normadan past darajada ekaniga ya'ni asimmetrik munosabatda ekanidan ishora qiladi.

Ushbu misollarga tayangan holda aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalariga ega bo'lgan so'zlar insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi o'ziga xos chegara rolini bajaryapti.

Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari ikki xil (dualistik) xarakteri kishi diqqatini o'ziga tortadi. Birinchisi, inson dunyoni hid orqali bilib, nomlab, uni zarur komponent sifatida ularda "predmetlik" va "muqim (o'zgarmas)lik" xususiyati namoyon bo'lsa, belgi (ko'rsatkich) sifatida "o'zgaruvchanlik" va "ifodalilik" xususiyatlari namoyon bo'ladi.


Bundan tashqari, ingliz tilida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarimetamorik modeli ham keng qo'llanadi. Yoqimli hid insonning ijobiy hislarini ifodalasa, yoqimsiz hid yovuzlik singari salbiy tuyg'ularni ifodalaydi. Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari *aura, balm, fragrance, incense, odor, perfume, redolence, savor, scent, smellfe'llari* bilan baxt, mamnuniyat, muhabbat kabi simmetrik tuyg'ularni ifodalasa, *exhalation, exhaust, odor, smell, vapor fe'llari* bilan asimmetrik

munosabatgi o'tadi. For example: 1) *A classic perfume that is still popular today. It has a refined bouquet with a steely power;* 2) *He typically rendered the light of early dawn and late afternoon in pastel hues and airbrush smoothness to create surreal auras.*

O'zbek tilida ham buruqsa, chang, tutun, quyuq kabi leksemalar muloqot jarayonida asimmetrik ma'noda kelsa, musoffo, toza, sof, beg'ubor, pokkabi leksemalar muloqotning simmetrik munosabatga kirishishga hizmat qiladi. Masalan: 1) *Yaqinginda shivirlab o'tgan yomg'irdan kegin havo musaffo (S.Anorboyev, "Oqsoy");* 2) *Toshkent qadimdan serquyosh, musaffo havoli, sersuv, unimdor tuproqli shahar sifaptida shuhrat qozongan ("Saodat").*

Metaforik modellar bilan bir qatorda ingliz va o'zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalari tipidagi metonimik modellar ham qo'llanadi. M.: Ingl.: *Williams pushes the right buttons with the buttery, caramelized sweetness of praline over the crunchy savor of the wings;* o'zbek tilida: *Ufq'larga otash qalab, Tong otadi sof nafis (E.Vohidov).*

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning asosiy holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma asosida ifodalashga harakat qilamiz:



Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning yadrosi til egalari uchun faol simmetrik assotsiatsiya hosil qiladi, kamroq ahamiyatga ega bo'lganlari esa periferiyadan joy oladi va markazdan uzoqlashgan sari ular (assotsiatsiya)ning ma'nosi ham susayib ya'ni asimmetrik munosabatga o'tib boradi. Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning yadrosi sifatida so'zlovchi ongida hosil bo'lgan asosiy tushuncha (tasavvur) tan olinadi. Uning periferiyasini esa yadroning kognitiv xususiyatini baholaydigan va izohlab, talqin qilib bera oladigan maydon hosil qiladi.

Zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning insonning kognitiv idrokigina emas, balki o'z intanatsion, tovlanishi, past-balat shakli, toni hamda o'z o'rniga ega bo'lgan obyekt sifatida u kishining holati va his-tuyg'ularini ifodalovchi muhim omillaridan biri sifatida lisoniy tadqiqot uchun obyekt sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning pragmatik aspekt jihatlarini, turli kommunikativ va informativlarning o'ziga xos simmetrik va asimmetrik tomonlari tahlil qilindi. Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning alohida semantik guruhlarida qo'llanilishi muayyan simmetrik va asimmetrik kommunikativ jihatdan farqlanishiga aniqlik kiritildi va nafaqat kommunikativ nuqtai-nazardan, balki pragmatik nuqtai nazardan simmetriya va asimmetriyada o'ziga xos ekanligi asoslab berildi. Tadqiqotimizda hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini struktural-semantik va kommunikativ-pragmatik jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tadqiqotimizda hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning asosiy holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma asosida ifodalashga harakat qilindi. Unga ko'ra "hid bilish qobiliyatini" konseptual holati, *hid, is, bo'y, dud, ishora, sharpa*, omillari bilan uzviy bog'liqligi isbotlab berildi. Mazkur chizma, birinchidan, simmetrik idrok rolini ma'lumot yoki bilimni qabul qilishga, ikkinchidan, inson imkoniyatidan kelib chiqqan holda muayyan harakat obyektida "*hid bilish idroki*" (inson) diqqatni bir joyga jamlash, imkon darajasida ularni simmetrik yoki asimmetrik munosabatlarini aqlan nazorat qilish va tahlil qilishga asoslanganligi izohlab berildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamatov, A. (2010). O'zbek tilida frazeologik birliklarning tizim xususiyatlari. Toshkent: Fan.
2. Gulomov, A. (2005). O'zbek tilida ko'rish sezgisi bilan bog'liq iboralar va ularning semantik xususiyatlari. Toshkent: O'zMU.
3. Qosimov, N. (2012). O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: O'zbekiston.
4. Jo'rayev, Sh. (2018). Tilshunoslik va frazeologiya masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Oxford University Press.
6. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford: Clarendon Press.
7. Кунин, А. В. (1996). Англо-русский фразеологический словарь. Москва: Русский язык
8. Шанский, Н. М. (1985). Фразеология современного русского языка. Москва: Просвещение.